

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Olimjonova Dilnavoz Maribjon qiz

Andijon davlat pedagogika instituti, magistrant.

e-mail: dilnavozkarimova64@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0545-4576>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. ChatGPT, Canva AI va Quizizz AI platformalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning o'quvchilarning matnni tushunish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, ChatGPT, Canva AI, Quizizz AI, interaktiv topshiriqlar, mustaqil fikrlash.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Олимжонова Дилнавоз Марибжон кизи

Андижанский государственный педагогический институт, магистрант.

Аннотация.

В статье раскрыта методика развития читательской грамотности учащихся начальных классов на основе технологий искусственного интеллекта. Проанализированы возможности применения платформ ChatGPT, Canva AI и Quizizz AI, а также показана их эффективность в развитии понимания текста и самостоятельного мышления.

Ключевые слова: искусственный интеллект, читательская грамотность, начальное образование, ChatGPT, Canva AI, Quizizz AI, интерактивные задания, самостоятельное мышление.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi

Andijan State Pedagogical Institute, Master's Student.

Abstract.

This article presents a methodology for developing reading literacy among primary school students through artificial intelligence technologies. The educational potential of ChatGPT, Canva AI, and Quizizz AI is analyzed, demonstrating their effectiveness in improving reading comprehension, independent thinking, and interactive learning.

Keywords: artificial intelligence, reading literacy, primary education, ChatGPT, Canva AI, Quizizz AI, interactive learning, independent thinking.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, asosiy mazmunni ajrata olish hamda mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli ta'lim olishning muhim omili sanaladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metod va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida ham yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Xususan, sun'iy intellekt asosidagi platformalar yordamida matnlar yaratish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos topshiriqlar ishlab chiqish, interaktiv mashqlar tayyorlash hamda ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi kerak» [2; 127-b]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish va

zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham o'qish savodxonligi o'quvchilarning matnni tushunish, undan axborot olish va o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lay olish kompetensiyasi sifatida baholanadi [3; 18-b]. Shu jihatdan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning matn bilan ishlash, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu asosda mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi hamda uning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika sohasidagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu jarayonda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ham ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda o'qish savodxonligi o'quvchining matnni tushunishi, tahlil qilishi, undan axborot olishi va kundalik hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi [3; 21-b]. PIRLS xalqaro baholash dasturida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. B. Trilling va C. Fadel tadqiqotlarida XXI asr ko'nikmalari tarkibida o'qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash va axborot bilan ishlash kompetensiyalarining muhim o'rin egallashi ta'kidlangan [7; 63-b]. Tadqiqotchilar zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va matnni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish zarurligini qayd etadilar. R. Luckin sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi imkoniyatlarini tahlil qilib, bunday texnologiyalar o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos ta'lim muhitini yaratish imkonini berishini ta'kidlaydi [1; 58-b]. Muallifning fikricha, sun'iy intellekt asosidagi platformalar yordamida differensial topshiriqlar yaratish hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Mahalliy tadqiqotlarda ham boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, K. Qosimova va boshqa metodist olimlar boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida matn ustida ishlash, lug'at boyligini oshirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim metodik vazifalardan biri ekanligini ta'kidlaydilar [4; 44-b].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish, matn bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish hamda interaktiv ta'lim muhitini tashkil etishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni faqat matnni o'qish bilan cheklanmay, balki matn mazmunini tushunish, tahlil qilish, qahramonlarga baho berish, mustaqil fikr bildirish va hayotiy xulosalar chiqarish kabi ko'nikmalarni ham shakllantirishni talab etadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning matn bilan ishlash faoliyatini faollashtirish, interaktiv ta'lim muhitini yaratish hamda differensial topshiriqlarni tashkil etishda samarali imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot Andijon shahridagi **«Innovation Erudit School»** xususiy umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-sinfida tahsil olayotgan 21 nafar o'quvchi ishtirokida olib borildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, amaliy topshiriqlarni bajarish hamda natijalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Dars mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganildi. Kuzatish davomida o'quvchilarning matnni tushunish darajasi, mustaqil fikrlashi, qahramonlarga munosabat bildirishi, kreativ yondashuvi va interaktiv topshiriqlardagi faolligi muntazam tahlil qilindi. Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini aniqlash maqsadida amaliy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida 3-sinf **«O'qish savodxonligi»** darsligidagi M.E. Toirovaning **«Chorining qobiliyati»** mavzusi asos qilib olindi [7; 42-46-b]. Ushbu matnning tanlanishiga sabab sifatida unda o'quvchilarning matnni tahlil qilish, qahramon xarakterini baholash, voqealarga munosabat bildirish hamda hayotiy xulosa chiqarishga yo'naltirilgan pedagogik imkoniyatlarning mavjudligi ko'rsatildi.

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning bir necha metodik yo'nalishlari ishlab chiqildi. Dastlab matn mazmuni asosida ChatGPT platformasi yordamida turli murakkablikdagi savol-topshiriqlar yaratildi. Savollar reproduktiv, izohli, muammoli va ijodiy xarakterda ishlab chiqildi. Jumladan:

- matn mazmunini tushunishga oid savollar;
- qahramonning hissiy holatini tahlil qilish;
- voqealarga munosabat bildirish;
- matn davomiga oid taxminlar qilish;
- qahramon harakatlariga baho berish

kabi topshiriqlar ishlab chiqildi. Masalan, **«Nima sababdan Chori o'zini qobiliyatsiz deb o'yladi?»**, **«Siz Chorining o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?»**, **«Hikoyaning asosiy g'oyasi nimadan iborat?»** kabi savollar o'quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt platformasi yordamida bir mavzu bo'yicha turli darajadagi topshiriqlar yaratish imkoniyati differensial ta'limni tashkil etishda qulaylik yaratdi.

Tadqiqot davomida Canva AI platformasidan ham foydalanildi. Ushbu platforma yordamida matn mazmuniga mos vizual materiallar, rasmlar va ko'rgazmali taqdimotlar tayyorlandi. Xususan, bog' manzarasi, meva-sabzavotlar, futbol

maydoni va xor jamoasiga oid tasviriy materiallardan foydalanildi. Vizual vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn mazmunini yaxshiroq tushunishiga hamda voqealarni tasavvur qilishiga yordam berdi. Ayniqsa, rasmlar asosida hikoya tuzish va matnga mos fikr bildirish topshiriqlari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali bo'ldi. Shuningdek, Quizizz AI platformasi yordamida interaktiv test topshiriqlari yaratildi. Testlar orqali o'quvchilarning matn tushunish, asosiy g'oyani aniqlash, qahramonlarning harakatlarini baholash hamda voqealar ketma-ketligini tushunish ko'nikmalari tekshirildi. Platformaning avtomatik baholash imkoniyati o'quvchilarning natijalarini tezkor tahlil qilish va baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning:

- matn bilan ishlash faolligi;
- savollarga mustaqil javob berishi;
- matn mazmunini tahlil qilishi;
- kreativ fikrlashi;
- interaktiv topshiriqlarda ishtiroki

kuzatildi va tahlil qilindi.

Mazkur metodologiya sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish, matn bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtirishda samarali pedagogik vosita bo'lishi mumkinligini aniqlash imkonini berdi.

Muhokama.

Pedagogik kuzatishlar natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, **«Chorining qobiliyati»** matni asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning matn tushunish, qahramon xarakterini tahlil qilish hamda voqealarga mustaqil munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Pedagogik kuzatishlar davomida sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirgani aniqlandi. An'anaviy savol-javob usullariga nisbatan interaktiv va muammoli topshiriqlarga o'quvchilar ko'proq qiziqish bildirdilar. Xususan, **«Siz Chorining o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?»** yoki **«Chori nima sababdan o'z qobiliyatini darhol anglay olmadi?»** kabi savollar o'quvchilarning fikrlash faolligini kuchaytirdi hamda ularni matn ustida chuqurroq ishlashga undadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ChatGPT platformasi yordamida yaratilgan topshiriqlarning asosiy afzalligi qisqa vaqt ichida turli murakkablikdagi savollar ishlab chiqish imkoniyatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, differensial topshiriqlar yaratishda sun'iy intellekt vositalarining qulayligi kuzatildi. Masalan, ayrim o'quvchilar uchun matn mazmunini tushunishga oid soddavollalar, yuqori tayyorgarlikka ega o'quvchilar uchun esa tahliliy va ijodiy topshiriqlar ishlab chiqildi. Bu esa o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini berdi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga ham yordam berdi. Matnda uchraydigan **«xo'rsindi»**, **«hayajon bilan»**, **«boshini egganicha»** kabi ifodalar asosida tushuntirish va izohli topshiriqlar yaratildi. Natijada o'quvchilar matndagi badiiy ifodalarni yaxshiroq tushunishga harakat qildilar. Bu esa o'qish savodxonligining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan matn anglash kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qildi.

Canva AI platformasi yordamida tayyorlangan vizual materiallar ham dars samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, bog' manzarasi, futbol maydoni, xor jamoasi va meva-sabzavotlarga oid tasviriy materiallar o'quvchilarning matn voqealarini yaxshiroq tasavvur qilishiga yordam berdi. Pedagogik kuzatishlar davomida rasmlar asosida hikoya tuzish va voqealarni ketma-ket izohlash topshiriqlarida o'quvchilarning ishtiroki faolroq bo'lgani aniqlandi.

Quizizz AI platformasi orqali tashkil etilgan interaktiv test topshiriqlari esa o'quvchilarning darsdagi qiziqishini oshirdi. O'quvchilar test topshiriqlarini oddiy nazorat ishi sifatida emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qildilar. Bu esa ularning darsdagi motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, tezkor natija olish imkoniyati o'quvchilarning o'z xatolarini darhol ko'rishiga va ularni tuzatishga yordam berdi.

Natijalar.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning:

- matn tushunish;
- asosiy g'oyani aniqlash;
- qahramonlarga baho berish;
- mustaqil fikr bildirish;
- kreativ yondashuv asosida javob berish

ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Kuzatilgan ko'rsatkich	Pedagogik kuzatish natijalari
Matn tushunish	O'quvchilar matn mazmunini to'liqroq anglash va asosiy g'oyani aniqlashda faolroq ishtirok etdilar.
Mustaqil fikrlash	Savollarga mustaqil va asoslangan javoblar soni ortdi.
Qahramonlarga baho berish	O'quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga ko'proq e'tibor qaratdilar.

Kuzatilgan ko'rsatkich	Pedagogik kuzatish natijalari
Kreativ yondashuv	Hikoya davomiga oid yangi g'oyalar va taxminlar ilgari surildi.
Interaktiv topshiriqlardagi faollik	ChatGPT, Canva AI va Quizizz AI asosidagi mashg'ulotlarda o'quvchilarning ishtiroki yuqori bo'ldi.

Manba: Muallifning pedagogik kuzatishlari asosida tuzilgan.

Biroq, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Xususan, ayrim hollarda o'quvchilar tayyor javoblarga haddan tashqari tayanishga moyillik bildirdilar. Ba'zi vaziyatlarda sun'iy intellekt platformalari tomonidan umumiy yoki yosh xususiyatlariga to'liq mos kelmaydigan topshiriqlar ham taqdim etildi. Shu sababli o'qituvchi tomonidan sun'iy intellekt vositalarida yaratilgan materiallarni pedagogik va metodik jihatdan qayta tahlil qilish zarurligi aniqlandi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini cheklab qo'ymaslik muhim pedagogik omil ekanligi kuzatildi. Agar o'quvchi faqat tayyor javoblarga suyanadigan bo'lsa, matnni mustaqil tahlil qilish ko'nikmasi sustlashishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchining metodik boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan metodik jihatdan to'g'ri foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish, dars samaradorligini oshirish va interaktiv ta'lim muhitini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi [5; 73-b].

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ChatGPT, Canva AI va Quizizz AI kabi platformalardan foydalanish matn bilan ishlash jarayonini interaktiv tashkil etish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda o'qish faoliyatini faollashtirishga yordam berishi aniqlandi. Andijon shahridagi «**Innovation Erudit School**» xususiy umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-sinfida tahsil olayotgan 21 nafar o'quvchi ishtirokida olib borilgan pedagogik kuzatishlar ushbu texnologiyalarning o'quvchilarning matnni tushunish, asosiy g'oyani aniqlash, qahramonlarga baho berish va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishda ijobiy samara berishini ko'rsatdi. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida differensial va ijodiy topshiriqlar yaratish imkoniyati o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, vizual va interaktiv topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligi hamda motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida qisqa vaqt ichida turli metodik materiallarni yaratish imkoniyati o'qituvchining pedagogik faoliyatini ham yengillashtirishi kuzatildi.

Biroq, tadqiqot davomida ayrim o'quvchilarning tayyor javoblarga ortiqcha tayanishga moyilligi ham aniqlandi. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini parallel ravishda rivojlantirish zarur hisoblanadi. Demak, sun'iy intellekt texnologiyalaridan metodik jihatdan to'g'ri va maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda zamonaviy interaktiv ta'lim muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Luckin R. *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 184 p.
2. Mirziyoyev Sh. M. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mullis I. V. S., Martin M. O. *PIRLS 2021 Assessment Frameworks*. – Chestnut Hill, MA: Boston College, 2019. – 352 p.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va boshq. *Ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
5. Selwyn N. *Education and Technology: Key Issues and Debates*. – London: Bloomsbury Publishing, 2021. – 248 p.
6. Toirova M. E. *O'qish savodxonligi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik*. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.
7. Trilling B., Fadel C. *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009. – 256 p.